

24-yanvar kuni Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan an'anaviy LED Together mukofotlash marosimida "Uzbekistan Airways" 2019 yildagi faoliyat yakunlariga ko'ra MDH mamlakatlarida eng jadal rivojlanayotgan aviakompaniya deb topildi. Ushbu e'tirof O'zbekiston aviakompaniyasining 28 yilligini nishonlash arafasida munosib sovg'a bo'ldi.



Bugungi kunda "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasining qulay avialaynerlarida "Pulkovo" aeroportiga Toshkentdan - 5 ta, Samarqanddan - 4 ta, Urganchdan - 3 ta, Farg'ona, Namangan, Termiz va Buxorodan haftasiga 1 tadan qatnov amalga oshirilmoqda. 2019-yil oxirida O'zbekiston aviakompaniyasi Pulkovoda 288,7 ming kishiga xizmat ko'rsatdi, bu 2018-yilga nisbatan 20,1% ga ko'p, parvozlari va qo'nishlar soni 200 tadan ortiq operatsiyalarga ko'paydi.

Ta'kidlash joizki, "Shimoliy Poytaxtning Havodarvozasi" - "Pulkovo" aeroportining boshqaruv kompaniyasi har yili Sankt-Peterburg (Rossiya) aeroportiga parvozlarni amalga oshirayotgan aviakompaniyalarni yo'lovchilar oqimini ko'paytirish, yangi yo'nalishlarni rivojlantirish, Sankt-Peterburgdagi havodarvozasi va turizmni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun mukofotlab boradi.



[Download PDF](#)